XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 4-yanvar VII-3-1-8-116-K/25 Sariosiyo tumani

Sariosiyo tumanidagi ayrim geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga muvofiq, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining bayoni hamda 2024-yil 26-noyabrdagi 05-19-015477-sonli ekspert xulosalariga asosan, Sariosiyo tumanida 18 ta nomsiz geografik obyektlarning nomlari o‘rganib chiqilib, ijobiy xulosa berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining bayoni hamda 2024-yil 26-noyabrdagi 05-19-015477-sonli ekspert xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar: Sariosiyo tumanidagi 18 ta nomsiz qabristonlarning nomlari **ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Ochildiyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (S.Qurbonov) yangi nomlanayotgan qabristonlarni nomlari aks ettirilgan peshlavhalarni 1 (bir) oy muddatda belgilangan tartibda o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki nomlangan qabristonlarga peshlavhalar tayyorlash, o‘rnatish uchun sarflanadigan mablag‘lar qonunda taqiqlanmagan manbalar hisobidan qoplanadi.

5. Tuman statistika bo‘limi (O.Qosimov), davlat kadastrlari palatasi Sariosiyo tuman filiali (F.Xasanov) nomlangan qabristonlarning nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qaror “Sariosiyo” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Chorshanbiyeva) va Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash va huquqiy masalalar bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Samatova) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



DONAYEV
ABDUQODIR
HAYDAROVICH

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2025-yil 4-yanvardagi
VII-3-1-8-116-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sariosiyo tumanidagi nomsiz qabristonlarni nomlash to‘g‘risida taklif

T.r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	qabriston	Maland mahallasi	nomsiz	Maland	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	qabriston	Sharq yulduzi mahallasi	nomsiz	Xonim yoki Bibixonim	**Xonimtepa** - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	qabriston	Mehr-shafqat mahallasi	nomsiz	Oybekota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	qabriston	Mehr-shafqat mahallasi	nomsiz	Tandirqo‘rg‘on	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	qabriston	Shohjahon mahallasi	nomsiz	Hazrati Shohimardonbobo	**Shohimardon** - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	qabriston	Sa’diy Sheroziy mahallasi	nomsiz	Qayrag‘och 1	**Katta Qayrag‘och** - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	qabriston	Billur mahallasi	nomsiz	Muftiallambobo	**Alambobo** - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	qabriston	Billur mahallasi	nomsiz	Islomobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

9.	qabriston	Shahriobod mahallasi	nomsiz	Mozortepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	qabriston	Ehtirom mahallasi	nomsiz	Ehtirom, Qozibobo	Ushbu berilgan takliflardan **Qozibobo** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	qabriston	Ehtirom mahallasi	nomsiz	Minor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	qabriston	Niholzor mahallasi	nomsiz	Sohibkorota	**Sohibkor** - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	qabriston	Nurobod mahallasi	nomsiz	Kengmozor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	qabriston	Bog‘iobod mahallasi	nomsiz	Domilo yoki mulla Mirakbobo	**Mirakbobo** - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15.	qabriston	Xalqobod mahallasi	nomsiz	Xidirbobo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	qabriston	Bog‘i Samarqand mahallasi	nomsiz	Quyi chashma	**Quyi Chashma** - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
17.	qabriston	Kelajak sari mahallasi	nomsiz	Bodomzor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18.	qabriston	mahallasi	Yakkaarcha	Boboashurhoji	**Ashurhoji** - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.